



Jizzax davlat
Pedagogika
Universiteti

TARIX FAKULTETI

HISTORY AND SOCIETY

ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО
общественный электронный
Журнал

№ 1

JOURNAL
2024



TARIX VA JAMIYAT ILMIY ELEKTRON JURNAL

2024-yil 1-son Ijtimoiy-gumanitar fanlar
Tarix, falsafa, huquq, sotsiologiya, tarix metodikasi

Bosh muharrir: Aqchayev F.Sh. JDPU, t.f.b.f.d. (PhD),
dotsent.tarix fakulteti dekani

Bosh muharrir Pardayev A.H. JDPU, tarix, t.f.n.,
o‘rinbosari: dotsent

Mas’ul kotib: Karimova N.I JDPU, tarix,t.f.b.f.d (PhD)

TAHRIRIYAT A’ZOLARI:

1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik
2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor
3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor
4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor
5. Choriyev S. – falsafa fanlari doktori, professor
6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor
7. Pardayev M.H. – tarix fanlari nomzodi, dotsent
8. G‘oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
9. Yarmatov R.B. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), professor
11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dotsent
12. Toshboyev F.E. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), professor
13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, professor
14. Kobzeva.O.P. - tarix fanlari doktori, professor
15. G‘ofurov J.I – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dotsent
16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
17. Valiyev A.X. – katta o‘qituvchi
18. Majidov A.S. – katta o‘qituvchi

Dizayner va sahifalovchi:

Karimova. N.I

MUNDARIJA

1. **MUNDARIJA** _____ 3-4
2. **TARIX FANINI O'QITISHDA TARIXIY-BADIIY ADABIYOTLARDAN FOYDALANISHNING MAZMUNI VA MOHIYATI.** Ahror Pardayev Hasanovich. Zokirova Muxlisa. _____ 5-9
3. **TURONNING BOHODIR VA DONO AYOLLARI.** Boltayev Abdurasul. Olim Mamarasulov. _____ 9-14
4. **SOHIBQIRON AMIR TEMUR VA UNING HARBIY MAHORATI.** Boltayev Abdurasul. Abdullayev Abdulaziz _____ 15-18
5. **MUSTAQILLIK YILLARIDA JIZZAX SHAHRINI ZAMONAVIY QIYOFAGA KELTIRISH.** Abdurasulova Dilbar To'raevna . Soatov Diyor _____ 19-24
6. **FRIGIYA PODSHOLIGI.** Xamrayev G'ayrat G'aniyevich. Jumaqulova Diyora Ergashboy qizi. _____ 25-29
7. **KUSHON DAVLATI TARIXI VA MADANIYATI XUSUSIDA.** O.Abdig'apparov. Nabiyeva Farmuda. _____ 29-34
8. **MISR MADANIYATINING O'ZIGA XOS JIHLTLARI.** O.Abdig'apparov. Naxalboyev Fozilbek. _____ 34-38
9. **TA'LIMGA MILLIYLIK RUHI ASOSIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH SAMARADORLIGIGA OID.** J.O.Saidov. Shukurova Maftuna Alisher qizi. _____ 38-43
10. **G'ARBIY YEVROPADA YANGI DAVR MADANIYATINING SHAKLLANISHI.** To'ychiyeva Dilnoza Ikromovna. Yo'ldoshev Bektemir Tursunboy o'g'li. _____ 44-49
11. **ABDURAHMON JEVACHI — ERK VA OZODLIK KURASHCHISI.** B.Mirkomilov. Sh.Boymatov. _____ 49-53
12. **РОЛЬ ЖЕНШИН В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ (КОНЕЦ XIX И НАЧАЛО XX ВЕКА).** Каримова Наргиза Икрамовна. Акрамова Навбахор. _____ 53-58
13. **ПОЛИТИЧЕСКАЯ ЖИЗНЬ СРЕДНЕЙ АЗИИ В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВЕКА.** Каримова Наргиза Икрамовна. Бобокулова Севинч. _____ 58-64
14. **DAVLATCHILIK TARIXIMIZDA SIYOSIY TRANSFORMATSIYANING NAMOYON BO'LISHI** Jamshid.Eshboyevich. Toshboyev. Abdug'aniyev Jahongir. _____ 64-68
15. **TARIXIY ARXEOLOGIK MANBALAR VA UNING QADIM TARIXIMZDA TUTGAN O'RNI HAQIDA.**Furqat.Eshboyevich.Toshboev. R. Nosirova . _____ 69-73
16. **LARSA SHAHRI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR.** Tugalov Boburjon Baxodir o'g'li. Karimov Boburjon Bobomurod o'g'li. _____ 73-78
17. **ТОРГОВО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ И КУЛЬТУРНАЯ ЖИЗНЬ В СРЕДНЕЙ АЗИИ (В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛО XX ВЕКА).** Каримова Наргиза Икрамовна, Машарипова Нодира. _____ 78-84
18. **TEMURIYLAR DAVRIDA SIYOSIY JARAYONLAR.** Burxonov Lazizjon Salimjon o'g'li. Nurullayeva Farangiz Dilshod qizi. _____ 85-89
19. **ТРАДИЦИИ И ОБЫЧАИ КАРАКАЛПАКОВ.** Каримова Наргиза Икрамовна Джумамуратова Инобат. _____ 89-93
20. **YOZMA MANBALARDA KESH VA NAXSHAB TARIXINING YORITILISHI** Jo'raqulova Nurmohi Ne'matulla qizi. Bobur Karimov. _____ 94-100
21. **KRIPTOGRAFIYA NIMA SABABDAN PAYDO BO'LDI YOXUD ILK SHIFRLASH NAMUNALARI.** Mirkomilov Baxtiyor.Axmedova Dildora Erkinjon qizi _____ 100-105

LARSA SHAHRI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR

JDPU tarix fakulteti o'qituvchisi
Tugalov Boburjon Baxodir o'g'li
JDPU Tarix fakulteti talabasi
Karimov Boburjon Bobomurod o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqolada ko'p asrlik tarixga ega Larsa shahri haqida bo'lib, bu shahar Mesopotamiyada joylashgan, miloddan avvalgi 1822-1763-yillarni o'z ichiga oladi. Bu shahar haqida manbvalar tahlili asosida umumiy ma'lumotlar berishga harakat qilingan.

Аннотация: В данной статье речь идет о многовековом городе Ларса, который расположен в Месопотамии и охватывает 1822-1763 годы до нашей эры. Сделана попытка дать общие сведения об этом городе на основе анализа источников.

Annotation: This article is about the centuries-old city of Larsa, which is located in Mesopotamia and includes the years 1822-1763 BC. An attempt is made to provide general information about this city based on the analysis of sources.

Kalit so'zlar: Babil, Mesopotamiya, Amoritlar, Nippur, Lagash, Ur, SHumer, Isin, Xammurapi, Eshnunna, Mari, Ashshur.

Ключевые слова: Вавилон, Месопотамия, Амореи, Ниппур, Лагаш, Ур, Шумер, Исин, Хаммурапи, Эшнунна, Мари, Ашур.

Keywords: Babylon, Mesopotamia, Amorites, Nippur, Lagash, Ur, Sumer, Isin, Hammurabi, Eshnunna, Mari, Ashur.

Bu shahar haqida berilgan ma'lumotlarga qaraganda, Bobilda ya'ni, Mesopotamiya hududida joylashgan shaharlardan biri bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Mil. avv. XIX asr boshlarida ko'chmanchi g'arbiy Semit, Amorit qa'bilalarining bosqinlaridan Larsa va uning raqibi Isin omon qolishadi. Bu ikki shahar bosqindan qutilib, Amorit davrida Larsa qisqa vaqt ichida siyosiy-iqtisodiy farovonlikka erishadi. Biroq, shu davrda Shumer madaniyat markazi bo'lganligi haqida ham ayrim ma'lumotlarda keltirilgan. Nippur ruhoniylari, hatto o'z hukmdori Nur-adad sharafiga mil.avv.1865-1850-yillarda madhiya ham yozdilar, bu sharaf oldin faqat hukmdor va qirollar Cheers va Isinga berilgan edi. Bu shaharga Xammurapi tomonidan kelishuvlar taklif etilgan, lekin oxir oqibat bu shaharlar Babil hukmdori Xammurapi tomonidan bosib olinadi. Larsada g'ishtdan qirol saroyi qurilib, sug'orish tizimi ham ancha sezilarli darajada yaxshilanadi[6].

Mesopotomiyada savdo ishlari bilan maxsus savdo agentlari, tamkarlar shug'ullangan, ular o'z xizmatlari uchun uy ,bog', yer, olganlar hamda

sudxo 'rlik bilan ham shug'ullanganlar. Bobil, Ur, Larsa, kabi yirik shaharlar katta savdo markazlari bo'lgan erkin kishi avelium (odam) deb atalgan[3]. Shu bilan birga Larsa, Bobil bilan muvaffaqiyatli urushlar ham olib borgan va oxir oqibatda Nippurni egallab oladi. Dajla bo'yida joylashgan hududlarda o'z ta'sirini yoyishga juda harakat qiladi. Biroq bizga yetib kelgan manbalardan xulosa qilish mumkun-ki, Larsaning birinchi shoxlari, asosan o'z shaharlaridan tashqarida katta ta'sirga ega bo'lmagan va ehtimol o'zlari ustidan Isin shohlarining hokimiyatni tan olishgan. Miloddan avvalgi 1924-yillar atrofida Larsa shaharining yuqori cho'qqiga ko'tarilishi kuzatilgan. Shumer va Gungunum taxtga o'tirganidan keyin, "Akkad podshosi" unvonini oldi, uning qudratini Lagash va Ur shaharlariga tarqaladi. Gungunum Abisarix o'g'lining hukmronligi ostida amoriylar miloddan avvalgi 1898-yilda boshqargan. Isin shohi Ur-Ninuratani jiddiy mag'lubiyatga uchratadi, ammo Mesopotomiyada Larsaning hukmdorlik davri uzoq davom etmadi. Taxminan 50-yil shoh Nur-Adad davrida uning shohlari Uruk shaharlari ustidan nazoratni yo'qotadilar. Bu yerda Nur-Adadning sulolasi hukmronlik qila boshladi. Nur-Adadning vorislari davrida Shumer shahri Amoriylar uchun muqaddas shahar bo'lgan. Larsadagi hokimiyatni Amorit Yamutbals qa'bilasining yetakchilaridan biri Qudurmabug egallab oladi, ammo u qirollik unvonini qabul qilmaydi va shahar devorlaridan tashqarida yashashni davom ettiradi. Mil.avv. 1826-yil atrofida Qirol Qudurmabug muqqadas Nippur Shaharini Isindan qaytarib olishga muvaffaq bo'ladi. Ko'p o'tmay, u o'zining o'g'li yosh Varad-Sinni Larsaning yangi qirol deb e'lon qiladi. Biroq, qirollik taxtiga unig ikkinchi o'g'li Rim-Sin taxtga o'tiradi. Uning hukmronligi ostida Larsa o'zining so'nggi yuksalish va xukmronlik davrini boshdan kechiradi. Mil.avv.1830-yillarda, Bobil shohligining kuchayish va qo'shni shahar-davlatlar bilan urushlarning keskin ko'payishi bilan bog'liqligi Larsaning tanazzulga uchrashiga sabab bo'ladi. Larsa shahri tanazzulga uchragandan keyin, mil.avv.1794-1792 yillarda, Rim-Sin I uning asosiy raqibi Isin shohligini ham zabt etgan. Rim-Sin I hukmronligi davrida mil.avv. 1763-yillar Larsa yana o'sish davriga kirdi. Quyi Mesopotomiyadagi eng yirik shaharga aylandi. Bobil davlatining gullab-yashnashi, sulolaning oltinchi podshosi Xammurapi mil.avv. (1792-1750) davriga to'g'ri keladi. Mil.avv. XIX asrning oxirida Amoriy hukmdori Shamshi-Add (1824-1870) atrofida davlatni egalab oldi. Mil.avv. 1800-yillar atrofida Mesopotomiya Janubini, Larsa podsholigi markazini, Bobil shahri, Eshnunna, Yuqori Mesopotomiyada, Mari podsholigini SHamshi-Add o'z hukmronligi ostida bo'ysundiradi. Larsa va Uruk kabi yirik shaharlar xarobalarining orasi atigi 24 km ekanligini, aholining juda ham zinch yashaganligidan bilishimiz mumkin. Frotning g'arbidagi bepayon o'tloq

va dashtlar chorvachlik bilan shug'ullanish imkoniga ega bo'lgan[1]. Xammurapi siyosiy faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri Frot suvlarini taqsimlash ustidan nazoratga erishish edi. Bunday siyosat Frot oqimidan pastda unga qulay bo'lmagan joyda joylashgan. Larsa podsholigi bilan to'qnashuvga olib borardi, Xammurapi taxtga o'tirgan yili Larsaning hukmdori Rim-Sin Shimolda Bobil va janubda Larsa o'rtasida buffer vazifasini o'tovchi Isini qo'lga kiritdi. Keyin 20 yil davomida Mesopotomiyaning muxim podsholiklari sanalgan Mari, Ashshur, Eshnunna, Larsa, Bobil o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri harbiy to'qnashuvlar yuz bermadi, ammo Xammurapi yashirin tarzda ittifoq tuzish ittifoqdoshlarni jalb etish, chegara sarxadlarini mustahkamlash ishlariga katta axamiyat bergan. Bu yerda shaharning joylashishi va uning hududi to'g'risda ma'lumot berib o'tilgan bu ma'lumotlar asosida shuni aytish mumkinki bu ma'lumotlar topilgan manbalar biz yuqorida 20 yil moboynda Mesopotomiyaning muhim podshiliklaridan biri hisoblanadi. Mil.avv.1763-yilda Xammurapi Larsaga qarshi anchadan buyon tayyorgarlik ko'rib kelyotgan harbiy xarakatlarni boshladi. Bu otasi bir vaqtda qo'llagan taktikani qo'lladi, Xammurapi Larsani suv bilan taminlovchi bosh kanalga to'g'on qo'yib suvni to'xtatib qo'ydi. So'ngra to'g'onni qutilmaganda ochib yuboradi va shaharni suv toshqinini ostida qoldirdi. Bobilning buyuk hukmdori Isin-Larsa davrida shahar siyosiy kuchga aylandi. Urning uchinchi sulolasi qulaganidan keyin. miloddan avvalgi 2000-yilda Urning uchinchi sulolasining oxirgi shohi Ibbi-Sinning amaldori Ishbi-Erra Isinga ko'chib o'tdi. Urning uchinchi sulolasining vorisi deb taxmin qilingan hukumat tuzdi. U yerdan Ishbi-Erra urni, shuningdek, Larsa bo'ysungan Uruk va Lagash shaharlarini qaytarib oldi. Isining keyingi hukmdorlari Larsa ustidan hukmronlik qilish uchun gubernatorlarni tayinladilar, gubernatorlardan biri Gungunum ismli amorit edi. Oxir-oqibat u Isin bilan aloqani uzdi va Larsada mustaqil sulolani o'rnatdi. Uning hukmronligini qonuniylashtirish va Isinga zarba berish uchun Gungunum Ur shahrini egallab oldi. Larsa mintaqasi Fors ko'rfazi orqali savdo-sotiqning asosiy markazi bo'lganligi sababli, Isin juda foydali savdo yo'lini hamda juda madaniy tomonlama ahamiyatga ega shaharni yo'qotdi.

Gungunumning ikki vorisi Abisare miloddan avvalgi 1841-1830-yillar va Sumuel miloddan avvalgi 1830-1801-yillar ikkialasi ham Isinga kirishdan butunlay uzib qo'yish uchun qadam tashladilar. Larsada ham qisqacha ishlagan Valter Andrae 1903-yilda. Sayt 1905- yilda Edgar Jeyms Banks tomonidan tekshirilgan. U mahalliy aholi tomonidan keng talon-taroj qilinayotganini aniqladi. Mesopotamiyadagi qadimgi shaharlarni qazib ochish va ilmiy o'rganishda ingliz geologi V.Loftusning ham xizmatlari katta bo'lgan. Uruk va Larsada katta

kashfiyotlar qilgan. Angliya ekspeditsiyasi XIX asrning 2-yarmida Uruk va Larsa kabi Shumer shaharlarida qazishma ishlarini olib bordilar[2].

Birinchi zamonaviy, ilmiy, qazish Senkereh ishi bilan 1933-yilda sodir bo'lgan Andr Parrot 1967-yilda yana shu joyda ishlagan. 1969-1970-yillarda Larsa Jan-Klod Margueron tomonidan qazilgan. O'rtasida 1976-1991-yillar bir ekspeditsiya bo'lgan. Yuqoridagi Larsa shahri haqida ma'lumot beradigan bo'lsam bu shahar qadimiy shaharlardan biri hisoblanadi. Bu shaharning ham o'ziga xos tarixi va adabiyoti bo'lib masalan bu shaharni ko'plab olimlar o'rgangan chet el oimlari, o'zimizning yurtimizning ham olimlari o'rgangan bu o'rganilishlar davrida bizgacha yetib kelgan ma'lumotlar masalan Larsa shaharining Xammurapi tomonidan bosib olinishi, hamda Larsaning qaysi shaharlar bilan aloqada bo'lganligi va qaysi shaharlar bilan xamkorlik qilgan, qayerlar bilan urush va janglar olib borganligi haqida ma'lumotlar yetib kelgan. Bu ma'lumotlarning bizgacha yetib kelishi uchun 1903-yilda Valter Andre ham Larsa shahari ustida qisqacha ishlagan bundan tashqari 1905-yilda Edgar Jeyms Banks tomoidan tekshirilgan. Shu olimlar va boshqa ko'plab olimlarning tekshirish va izlanishlari asosida shu ma'lumotlar bizgacha yetib kelgan desam hech ham adashmagan bo'laman. Bu arxeologik qazishmalar haqida o'z fikirimdi, bildiradigan bo'lsam har qanday qadimiy inshoot, yodgorlik topilishi uchun arxeolikalr Planigrafik, Stratigrafik, qazuv usullaridan foydalinaladi. Stratigrafik qazish usuli deb, qazish hududini 3-3, 4-4, qilib maydoni belgilab olib qazishga aytiladi. Shuni ham aytish keraki Larsa shahari bilan doimo raqib bo'lgan Isin shahri. Er. Avv. III-I ming yilliklarga oid moddiy madaniy yodgorliklari Mesopotomiyaning qadimgi shaharlari Eredu, Uruk, Lagash, Nippur, Eshnunna, Mari, Ashshur, Nineviya va Bobil xarobalarini qazish natijasda ma'lum bo'lgan. Bu shaharlarni o'rganish orqali olimlar tomondan o'rganilgan ko'plab ma'lumotlar bizgacha yetib kelgan va shu bilan birga bu ma'lumotlarni o'qish orqali biz bu shahar tarixi va shu bilan bir qatorda Bobil tarxini o'rganishimiz uchun bizga katta ma'lumot vazifasini o'tab bermoqda.

Eng qadimgi Mesopotamiyaning ekonomikasini o'rganishda qadimgi Shumerdagi Larsa, Umma, Ur, Lagash va boshqa shaharlarning arxivlaridan topilgan xo'jalik hisobotlariga oid hujjatlar g'oyatda katta ahamiyatga ega. Bu hisobotlar orasida ishchi kuchlari bilab ish yurgizish hisobotlaridan iborat keng to'plamlar, qul savdosi haqida shartnomalar, shuningdek savdogarlarning daromadi va xarajatlari va preyskuranatlar mol va uning narx-navolari haqida hisobotlar hujjatlar insonlar uchun juda ham ahamiyatli. Mil.avv. XIV-XII asrlar jamoa tuzumining qoldiqlarini tasvirlash va dehqonchilik formalarini o'rganish uchun boy material beradi. Bobil podshosi Xammurapining boshqa shahar

amaldorlari bilan ayniqsa Larsa shahri amaldorlari hamda zadogonlari bilan olib borgan ma'muriy yozishmalari mavjud. Bundan tashqari mil.avv II ming yillikning 1-yarmida Bobilning sun'iy sug'orish va ma'muriy idora qilish usulini tasavvur qilishga imkon beradi. Yerni ijaraga olishning o'sha davrdagi turli xil farmonlarini tasvirlash uchun bizning qo'limizda ko'pgina ijara shartnomalari hamda hujjatlar topib o'rganilgan. 2 Istilochi Amoreylar bir necha davlat barpo qilganlar. Ulardan ikkitasi ancha kuchli bo'lib chiqqan hamda ularning Shumer va Akkad podsholari deb atashgan ya'ni butun mamlakat ustidan hukmronlik qilishiga davogar bo'lishgan. Ana shu davlatlar Isin va Larsa edi. Biroq ular bir-birini zaiflashtira borgan sababli o'z da'volarini amalga oshirishga kuch-quvvati yetmagan. Buning ustiga Larsa qo'shni Elamning kuchli ta'siri ostida bo'lgan. Uning podsholari bu shahar-davlat taxtiga o'z odamlarini o'tkazib qo'yishgan. Amoreylar podsholiklari aslida ikki daryo oralig'idan tashqari mustaqil rol o'ynaganlar[5].

Xammurapi shu tariqa o'zining shimoliy chegarasining tinchligini ta'minlagach Elam bilan bog'langan Larsaga qarshi qaratadi. Hujjatlarda turli voqealarning bir vaqtda bo'lganligi yoki har xil siyosiy arboblarning bir vaqtda yashaganligini aniqlashga imkon beradigan ko'rsatmalar, xronologiyani belgilashga bir qadar yordam beradi. Masalan Eshnunna va Maridadan topilgan hujjatlar Eshnunna podshosi Ibalpin, Mari podshosi Zimrilim, Bobil podshosi Xammurapi, Larsa podshosi Rimsin va Ossuriya podshosi Shamshidat I zamondosh bo'lganliklarini aniqlashga imkon beradi. Shu bilan bir qatorda Uruk va Larsa Frot daryosi bo'yida joylashgan. Hozirgi vaqtda esa bu shaharlarning vayronalari Frot daryosi o'zanidan sharq tomonda joylashgan[2]. Hokim Lug'al-zagissi Ur, Uruk va Larsa kabi shahar-davlatlarini o'ziga itoat ettirib Shumer podsholigini tashkil etgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak bu shahar Mesopotomiyada joylashgan bo'lib bu shaharning rivojlanishi va uning bosib olinish tarixi juda ham qiziqarli ma'lumotlar berilgan. Larsaning yuksalishi, va savdo sotiqdagi o'rni hamda Larsaga qo'shni shaharlar, Nippur, Eshnunna, Mari, Nineviya, Ashshur, Lagash, bu shaharlarga misol bo'ladi. Bu shaharning tarixi qadimdan o'rganilib kelinayabdi, yuqorida Larsa shaharini o'rgangan ko'plab olimlarning ismlari yozilgan bu esa insoni juda ham quvontiradi. Chunkiy bu bizning Qadimgi dunyo tarixini o'rganishimiz uchun keng imkoniyat yaratadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullayev U.A. Qadimgi dunyo tarixi Toshkent Davlat Sharqshunoslik Instituti Toshkent- 2017
2. A. Kabirov. Qadimgi sharq tarixi. Toshkent davlat Sharqshunoslik Instituti.Toshkent.-2016

3. F.A. Axmadshina. Qadimgi dunyo tarixi fanidan izlanishlar. SANGZOR nashriyoti. Jizzax-2012
4. V.I.Avdiev. Qadimgi sharq tarixi. UESSr. O'rta va oliy maktab" davlat nashriyoti. Toshent-1964
5. Yu. S. Kurushkov. Qadimgi dunyo tarixi
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Qadimgi_Shumer_sivilizatsiyasi